



ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA QO'LLANILGAN OMONIM SO'ZLAR TAHLILI

Abdunabiyeva Surayyo O'ktamjon qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning ba'zi she'rlarida qo'llanilgan omonimlar va ularning izohiga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Turli she'rlaridan misollar keltirilib, tahlil qilingan. Ularning ma'nosiga oid fikrlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: omonim, omonomiya, tahlil, misra, so'z qo'llanishi, ot so'z turkumi, fe'l so'z turkumi, sinonim, ijod, shoir.

АНАЛИЗ СЛОВ ОМОНИМОВ ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВОХИДОВА

Аннотация: В данной статье приводятся мнения о панегириках и их трактовка, использованная в некоторых стихотворениях народного поэта Узбекистана Эркина Вахидова. Представлены и проанализированы образцы различных стихотворений. Были высказаны мнения относительно их содержания.

Ключевые слова: омоним, омонимия, анализ, стих, словоупотребление, именная словосочетание, глагольное словосочетание, синоним, творчество, поэт.

USED IN THE POETRY OF ERKIN VAHIDOV HOMONYM WORDS ANALYSIS

Abstract: This article contains comments on homonyms and their interpretation used in some poems of People's Poet of Uzbekistan Erkin Vahidov. Examples of various poems are given and analyzed. Opinions about their meaning have been given.

Key words: homonym, homonymy, analysis, verse, word usage, nominal phrase, verb phrase, synonym, creativity, poet.

“XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi

O'ziga xosligi va ko'p qirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g'oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi” [1, 3]. Shoir hayot qiyinchiliklarini, undagi to'siqlarini yengib o'tish haqida ruhlantiruvchi she'rlari insonga kuch bag'ishlaydi. U leksika tartibidagi omonimlarni she'rlarida yuksak mahorat bilan qo'llagan.

Omonimlar bu yozilishi va talaffuz qilinishi bir xil lekin ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. “Omonimlar, avvalo, bir til doirasida belgilanadi: boshqa tilga mansub, hali o'zbek tiliga o'zlashmagan leksema bilan o'zbek tilidagi leksemani o'zaro omonim deb bo'lmaydi”



[2, 5]. Erkin Vohidov she'riyati qanchalik omonim so'zlarga boy ekanligiga e'tibor qaratamiz. Shoirning "Dostonga yoz" nomli she'rida shunday yozadi:

Kel muhabbat lazzatin,

Ta'rif etib dostonga yoz. [3, 249]

Ushbu misralarda u *yo'z* so'zini yozmoq ya'ni harakat ma'nosida qo'llagan. "Harf belgilar bilan tekst tuzmoq" [2, 49]. She'rda fe'l vazifasida kelgan. Buyruq ohangida. She'r mazmuni shundan iboratki, muhabbatdan olgan lazzatingni ta'riflab doston qilib yoz, chunki uni ta'riflashga bir she'r kamlik qiladi. Oddiy siyoh yetmaydi, uni qoning bilan bit. Dardingni har kimga aytma, eng yaqin yor-birodaringga ayt, chunki ular seni anglaydigan insonlar bo'lishadi. Bunda shoir muhabbat tuyg'usini ulug'lab, uning g'am-anduhini tushungan insonga dilingdagini chiqar demoqchi. *Yo'z* so'zini shoir boshqa she'rlarida ham qo'llagan. Masalan "Chashma qoshida" she'rida:

Qalbdam hamon o'sha yo'z-u

O'sha ko'k chashma. [3, 85]

Bunda *yo'z* fasl ma'nosida, ya'ni bahor bilan kuz orasidagi fasl. *Yo'z* so'zi yana solmoq o'rnida ham qo'llanadi. U fe'l so'z turkumiga mansub. "Yo'z-o'ralgan, tahlangan narsani ochip solmoq, ochmoq kermoq" [2, 59]. Misralarda faqat *yo'z* so'ziga emas, balki *ko'k* ham omonimdir. Biri rang ma'nosida qo'llangan. Moviy, havorang, zangori. Sifat so'z turkumiga kirib, narsa rangini ifodalagan. Shoirning ustoz qabrida she'rida:

Ko'kada qanot qoqmay tinch uchar burgut,

Ellar tinch, jilg'alar chiqarmas qanot. [3, 31]

Ushbu misralarda so'zning ikkichi ma'nosi osmon, falak, samodir. U ot so'z turkumiga kiradi. "Yer gumbaz shaklida ko'rinib turuvchi havo qatlami" [2, 83]. Uchichisi esa yashil, o't rangli. Misol qilib aytadigan bo'lsam ko'k piyoz, ko'k choy, ko'k o't. To'rtinchisi ot so'z turkumiga mansub sabzavot ekini nomi. "Kashnich, petrushka, barra piyoz kabi o'simlik" [2, 83], ya'ni ko'kat. Beshichisi bo'lsa, "asli asos, negiz ma'nosidagi so'z" [2, 83]. U ham ot so'z turkumiga oid bo'lib misol qilib gap tuzsak: Ko'klamga bir ko'ylak bichdi va faqatgina mashinada pishiq qilib tikish qoldi.

Yana "Ko'zing" she'rida ham u omonimlarni qo'llagan:

Hajrdin tor bu ko'ngilga

Shu'la afshondir ko'zing. [3, 242]

Bilamizki, *tor* so'zi omonimlariga ot so'z turkumiga mansub chertib chalinadigan musiqa asbobida bo'ladigan pishiq, tarang ip, yoki oddiy ip. *Tor* bu satrlarda kengning antonimi vazifada qo'llangan. Sifat so'z turkumiga mansub. "Tor-eni nisbatan kichik" [2, 135]. U sifat so'z turkumiga kirdi. She'rning keyingi misralarida:

Yo magar ko'nglim yo'qolgan

Tor shabistondir ko'zing. [3, 242]

Bundagi *tor* so'zi musiqa asbobi ma'nosida qo'llaniladi. U ham ot so'z turkumi sirasiga kirib nima so'rog'iga javob bo'ladi. "Tor-ko'p torli (gitaraga o'xshash) cholg'u asbobi" [2, 135]. Ko'zing she'rida oshiqing yor ko'zini tor ko'ngilga shula, yo'qolgan ko'ngilga tor shabiston, kecha-kunduz xayolida bo'luvchi sifatlarida tasvirlagan.



Erkin Vohidovning yana bir she'rida:

O'tirar sochin tarab yor

Chashmaning o'rtasida.[3, 85]

Yor so'zi ikki ma'noda bo'ladi biri fe'l yormoq, parchalash, ikkinchisida ot so'z turkumiga mansub yor ya'ni ma'shuqa so'zi qo'llanilib kelayapti. She'rda "ma'shuqa"ning sinonimini qo'llagan. "Yor-tojikcha; asli unlisi cho'ziq. Mahbuba ma'shuqa"[2, 62]. Ikkinchisi " Qismlarga ajratmoq. Yoriq, yorti, yormadir. Misol qilib aytadigan bo'lsam: do'st, yor-birodarlaring doim oldindadir. Mening dadam bugun o'tin yordi.

Shoirning "Xayrlashuv" she'rida:

Xayr sizga, Artashatning bog'lari,

Yuragimdan o'chmagaysiz siz mangu.[3, 97]

Ushbu she'rda *bog'* bu satrlarda ham ot so'z turkumiga mansub bo'lib, belbog' belga bo'lanadigan buyum bu so'zi bilan omonimdir. U misralarda esa *bog'* mevali daraxtlar ekiladigan joy ma'nosida qo'llangan. Ot so'z turkumiga mansub bo'lib, qayer so'rog'iga javobdir. "Bog'-(tojikcha) ot. Uzun (tok), mevali daraxt ko'p ekiladigan yer uchastkasi" [2, 36]. So'zing yana bir omonimi ot so'z turkumiga kiruvchi, quchoq so'zi sinonimidir. Ya'ni "bog' – biror narsaning to'dalab bog'lagan holati" [2, 36].

Shoirning yana bir "Azganush"

Ko'rdimu lol bo'ldi aqlim o'ngmidi bu yoki tush,

Bo'lsa ham o'ng yo seni ko'rgach, boshimdan uchdi hush. [3, 91]

She'rdagi *tush* so'zi odam uxlayotganda ko'radigan narsa haqida gap ketayapti. Nima so'rog'iga javob bo'lib ot so'z turkumiga oid. "tush- ot. Uyquda ko'rinadigan narsalar." [2, 139]. *Tush* yana peshin ya'ni soat kunduzgi o'n ikkidan to o'n oltigacha bo'lgan vaqt oraligi. Uning sifat so'z turkumiga javob bo'luvchi omonimi ham nutqimizda qo'llaniladi. "Tush-sifat. Teng" [2, 139]. Keyingi misralarda so'zing boshqa omonimini ko'rishimiz mumkin. Bu esa uning she'rining ta'sirchanligini oshirgan deyish mumkin. She'rning keyingi misralarida ham *tush* so'zining omonimi bor:

Sen baland tog' uzra erding misli ohu yoki qush,

Yolvorib men pastda derdim, bir nafas yonimga tush. [3, 91]

Tush – tepaga chiqishning antonimi, qulash, yuqoridan quyiga harakatlanmoq ma'nosini ifodalayapti. *Tush* buyruq gap tarkibiga kiruvchi so'zdir. Fe'l so'z turkumiga kiradi. misol qilib aytganda narvondan tushish. She'rda shoir Azganush ismli bir qizga murojaat qiladi. Qizni ko'rib aqli shoshib qolganini, o'ngmidi yoki *tush* farqlay olmay qolganini, "Farhod va Shirin" dostonidagi Shirin senmiding, o'sha doston senga atalganmidideb shubxaga boradi. Yuzi gul, sochi sunbul deb ta'riflanadi. She'rda shoir iyyhom, tajohuli orifona, tashbehndan foydalangan. Shoirning "Go'zallik mohiyati" she'rida ham omonimlar qo'llangan:

Oybu so'zni tinglagach, g'amgin bo'ldi, bo'zladi,

O'z dardini tongotar yulduziga so'zladi.[3, 430]

Bu yerda omonim *oy* so'zi so'z yerning yo'ldoshi bo'lgan sayyora haqida gap ketayapti. Ot so'z turkumiga mansub, nima so'rog'iga javob bo'ladi. Ikkinchisi har yili o'n ikki



marotaba takrorlanadigan yilning o'n ikkidan bir qismi. Vaqt o'lchov birligi. U ham ot so'z turkumiga mansub. "Oy-ot. Yerning tabiiy yo'ldoshi, tunda quyosh nurini yerda aks ettirib turuvchi planeta. Oy- ot. (vaqt o'lchovi). O'rta hisobda 30 kunlik muddat, yilning o'n ikkidan bir qismi"[2, 92].

May she'ri:

May – bahor qizining

O'n sakkiz yoshi[3, 77]

"May" she'rida *yosh* so'zi inson har yili kiradigan holat haqida gap bormoqda. *Qari* so'ziga antonim so'zidir. U sifat so'z turkumiga mansub. "yosh- sifat. Umrning vaqt hisobi nisbatan oz." [2, 63]. Misol qilib aytadigan bo'lsak ,yosh bo'lishiga qaramay ancha uddaburon edi. "May" she'rida Erkin Vohidov may oyiga bahorning o'n sakkiz yoshi deb ta'rif berib o'tadi. Haqiqatan, may bahorning o'n sakkiz yoshligidir, chunki inson aynan mana shu yoshga yetganida navqiron, ko'rkam, belida kuch bor paytidir. May ham shunday chunki bu oyda porloq quyosh zarrin nurlarini olamdan ayamaydi, gullar qiyg'os gullab, qushlar jonlanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, shoir she'rlarida omonimlar faol qo'llanilgan.

Rahmi kelib bulutning

Yig'lab to'kar yoshini[3, 9]

Endi *yosh* odam ko'pincha qayg'uga botganda va oz hollarda xursand bo'lganida ko'zdan oqib chiqadigan suyuq, suvga o'xshaydigan narsa haqida gap ketgan. U ot so'z turkumiga kirib, nima so'rog'iga javob bo'ladi. "Yosh-yig'laganda, hayajonlanganda, shamollaganda ko'z atrofidan chiqadigan suyuqlik" [2, 63].

"Kichik oy" so'zi:

Mayli, so'ng o't chirmashsin tanga,

Mayli, meni quchsin alanga.[3,20]

O't bu she'rda maysa ma'nosida kelayapti. *O't* so'zini uchdan ko'p omonimlari. Birinchisi ot so'z turkumiga mansub bo'lgan- olov, alanga. Ikkinchisi tana a'zosi, safo ot so'z turkumiga kiradi. Uchinchisi boshqa joyga bormoq. To'rtinchisi esa ushbu she'rda qo'llangan ko'katdir. "O't-ot. Giyoh, ko'kat, maysa, o'lan"[2, 169]. She'rda ona vatan uchun jonini tikishga tayyor bo'lga mard o'g'lonning sadoqati tilga olinadi. Erkin Vohidovning yana bir she'rida ham u bor.

"Ona tuproq" she'ri:

O'z muborak tuprog'in inson,

Yot nazardan asrab har nafas.[3, 42]

Bu misralarda *yot* omonim so'z qo'llanilganti. *Yot* degani begona ma'nosida. Gapdgi bu birlik ot so'z turkumi mansub bo'lib, qanday so'rog'ini oladi. Bu birlikka omonim sifatida *yotmoq* fe'lini keltirish mumkin. She'rda insonni nega yerni qutlug' deyishi haqida so'z boradi. Aslida tuproq emas, unga ketgan insonning peshona teri va bir qarich ona yurt tuprog'i uchun kurashda necha-necha ajdodlarimizning qoni muqaddas ekanligi g'oyasi singdirilgan.

Biz shoirning she'rlarini o'qir ekanmiz, hayotiy tushunchalarni badiiy tasvirlashda ko'proq omonim so'zlarga murojaat qilagnaligiga guvoh bo'lamiz. Shoir hech kimnikiga



o'xshamagan va takrorlanmas o'xshatmalari bilan boshqalardan doim ajralib turishida ham shakldosh so'zlarning o'rne bor. "Shoir

o'zbek she'riyatiga yangicha fikr, yangi shakllar, yangi obraz, yangicha ohang, yangicha usul va vositalar olib kirdi va uning tamoman yangilanishiga munosib

hissa qo'shdi." [1, 21]. Yuqoridagi she'rlar o'rganilishi shuni ko'rsatmoqdaki, poetik ta'sirchanlikni oshirish hamda so'zdan mahorat bilan foydalanishda shoir omonim so'zlar alohida e'tibor qaratgan deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1 M.T.Xodjiyev. Serqirra ijodkor. Solijonov.Y. Ruhiatni yoritgan she'riyat //– Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Sirdaryo. 2020. –B. 3, 21.

2. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarning izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 1984. –B. 5, 36, 49, 59, 62, 63, 83, 92, 135, 169.

3. E. Vohidov. Muhabbat. –Toshkent: G'ofur G'ulom Nashriyoti. 1879. – B. 9, 20, 31, 42, 77, 85, 91, 97, 242, 249, 430.